


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



**XORIJİY SHARQ TİLİ (HINDİY TİLİ)**

**FAN DASTURI**

- Bilim sohasi:** 200 000-San'at va gumanitar fanlar
- Ta'lif sohasi:** 230 000-Tillar
- Ta'lif yo'nalishi:** 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish  
(sharq tillari bo'yicha)

Toshkent – 2024

<b>Fan/modul kodi</b> XShT11-874	<b>O‘quv yili</b> 2024/2025 2025/2026 2026/2027 2027/2028	<b>Semestr</b> 1,2,3,4,5,6,7,8	<b>ECTS - Kreditlar</b> 10,10,10,10,10,10,8,6	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta’lim tili</b> O‘zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 10,10,10,10,10,10,8,6	
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Xorijiy sharq (hindiy) tili</b>	888	1332	2220

## 2. I. Fanning mazmuni

“Xorijiy sharq (hindiy) tili” fanidan tuzilgan mazkur dastur sharq filologiyasining bakalavriat yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. Mazkur dastur hindiy tili fanini o‘qitishga mo‘ljallab tuzilgan.

Fanni o‘qitishdan maqsad – hindiy tilining fonetik, leksik, grammatic xususiyatlari xususida ta’lim yo‘nalishi profiliga mos ravishda bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirish, sharq tili o‘qitishning asosiy yo‘nalishlaridan bo‘lib qolayotgan hozirgi zamon hind adabiy tili xususiyatlari va og‘zaki til elementlari, fonetikasi, grammaticasi sohasini o‘zlashtirgan tarjimon -hindshunoslarni tayyorlashdan iborat.

Fanning vazifasi- hindiy tilida erkin o‘qish, tushunish va tarjima qila olish, suhbat va so‘zlashuv nutqiga ega bo‘lish, o‘qilgan yoki eshitilgan matn mazmunini yozma yoki og‘zaki ravishda hindiy tilidan o‘zbek tiliga yoki aksincha, qisqa shaklda tinglovchiga yetkaza olish, hindiy tilida o‘qilgan materiallar asosida o‘zbek tiliga tarjima qilingan holda annotatsiyalar, referatlar, kurs ishlari va malakaviy bitiruv ishlarini yoza olishga o‘rgatishdan iborat.

## II. Asosiy nazariy qism (amaliy mashg‘ulotlar)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

#### 1-MODUL. XORIJIY SHARQ TIL

##### 1.1 1-BOSQICH: A1 DARAJA (BOSHLANG‘ICH)

#### FONETIKA

##### 1-mavzu. Hindiy tili haqida ma’lumot

Janubiy Osiyo mintaqasida Hindistonning o‘rnii va mavqeい. Hindshunoslikning buguni va ertasi. Tillarning tasniflanishi. Hind-oriy tillari oilasi va hindiy tili haqida umumiylar ma’lumot. Hozirgi zamon adabiy hindiy tili.

## **2-mavzu. Fonetika va yozuv**

Fonetika. Unli tovushlar. Cho'ziq va qisqa unlilar hamda ularning yozuvda ifodalanishi. Diftonglar. Burun tovushlari. Undosh tovushlar va ularning yozuvda ifodalanishi. Talaffuz jihatidan o'zbek tiliga mos yoki yaqin keladigan undoshlar. Nafasli va serebral undoshlar ularning yozuvda ifodalanishi. "N" burun undosh tovushining turlari. Anusvara. O'zlashma tovushlar. Undoshlarning birikib kelishi. Ligatura. Hindiy tili alifbosi - devanagari. Uning xususiyatlari. Tovushlarning talaffuz o'mi va usuli bo'yicha devanagari alifbosida joylashishi. Tinish belgilari. Hindiy tilida raqamlar. Visarga.

## **2-MODUL. MORFOLOGIYA**

### **1.1. 2-BOSQICH: A2 DARAJA (TAYANCH)**

#### **3-mavzu. Ot**

Otlarda jins va son kategoriyasi. Otlarning ko'pligini yashash. Ko'plikni anglatuvchi leksik ko'rsatkichlar Kelishik kategoriyasi. Murojaat kelishigining yasalishi. Kelishik ko'rsatkichlari.

#### **4-mavzu. Olmosh**

Olmoshning turlari. Kishilik olmoshlari. "Log" ko'plik ko'rsatkichining kishilik olmoshlari bilan ishlatalishi. Kishilik olraoshlarining vositali o'zagi. Ko'rsatish olmoshlarining ma'nolari va shakllari. So'roq olmoshlarining ma'nolari va ishlatalishi. Kelishiklarda turlanishi. Noaniq olmoshlar va ularning kelishiklari. "Koi" olmoshining kelishiklarda turlanishi. Kishilik olmoshlarining kuchaytirma shakllari.

#### **5-mavzu. Ort ko'makchilar**

Ort ko'makchilar: ularning vazifa va turlari: oddiy, qo'shma va murakkab ko'makchilar.

#### **6-mavzu. Sifat**

Sifat. O'zgaruvchi va o'zgarmas sifatlar. Sifat darajalari. Sifatning oddiy, qiyosiy va orttirma darajalari.

#### **7-mavzu. Son**

Sanoq sonlar. Tartib sonlar. Jamlovchi sonlar. Ularning gapda o'zgarishi. Sonlarning ishlatalishi.

#### **8-mavzu. Fel**

Fe'l. Fe'lning tuslanmaydigan (shaxssiz) shakllari. Infinitiv va uning ishlatalishi. Infinitivning fe'lllik va otlik xususiyatlari. Infinitivning vositali o'zagi. Ravishdosh va uning turlari. Umumiy tasnifi. *Karte-karte, beythe-beyhe, ke bageyr* kabi birikmalar. Fe'lning shaxsda tuslanuvchi shakllari. "Hona" fe'lining hozirgi va o'tgan zamon sodda shakllari. Murakkab ot fe'lllar. Murakkab intensiv fe'lllar. Qo'shma potensial fe'lllar. Qo'shma kompletiv fe'lllar. Qo'shma kompletiv fe'llarning shaklan o'timsizligi. Ularni intensiv fe'lllar bilan taqqoslash, ular o'rniga intensiv fe'llarning qo'llanilishi. "Hona", "parna" fe'llari va "chahie" ravishi bilan shart va zarurat birikmalarining yasalishi.

## **9-mavzu. Mayl**

Buyruq mayli. Aniqlik mayli. Fe'l zamonlari. Oddiy hozirgi zamon. Uning yasalishi va ma'nolari. Kelasi zamon. Oddiy o'tgan zamon fe'lining yasalishi, ma'nosi va ishlatalishi. O'tgan tugallangan zamon. O'tgan tugallangan zamonning subyektli va ergativ konstruksiyada qo'llanilishi. Hozirgi tugallangan zamon. Uning subyektli, neytral va obyektlidagi tuzilmalarda qo'llanilishi. Uzoq o'tgan tugallangan zamon. Uning subyektli, neytral va obyektlidagi tuzilmalarda qo'llanilishi. Hozirgi zamon davom fe'li. Uning yasalishi va qo'llanilishi. O'tgan zamon davom fe'li. Yasalishi va qo'llanilishi. Istak mayli. Istak mayli oddiy shaklining yasalishi. Uning shart, payt, o'rinni, maqsad, ergash gaplarda qo'llanilishi. Istak maylining murakkab shakllari. Taxmin mayli. Uning to'rt shakli. Taxmin mayli shakllarining qo'llanilishi. Shart mayli. Uning to'rt shakli.

#### **10-mavzu. Ravish**

Ravishlarning turlari va gapdagisi vazifalari. Sodda, qo'shma va murakkab ravishlar.

#### **11-mavzu . Sifatdosh**

Sifatdoshning turlari. Sodda notugal sifatdosh. Sodda tugal sifatdosh. "Vala" . "Vala" morfemali sifatdoshlar, ularning ma'nolari va qo'llanilishi. Murakkab sifatdosh. Murakkab tugallanmagan sifatdosh. Uning aniqlovchi, ravish holi, to'ldiruvchi funksiyalarida qo'llanilishi. Murakkab tugallangan sifatdosh. O'timli fe'llardan yasalgan sifatdoshning aktiv va passiv ma'nolari. Murakkab sifatdoshlarning aniqlovchi va ravish holi, ot-kesim vazifalarida qo'llanilishi. Uzoq davom etgan holatning "rehma" fe'li orqali ifodalanishi. O'timli fe'ldan yasalgan sifatdoshning o'zgarishi. Sifatdoshning neytral shakli.

### **1.2. 3-BOSQICH: B1 DARAJA (BOSHLANG'ICH O'RTA DARAJA)**

#### **12-mavzu. Nisbat**

Nisbat kategoriyasi haqida umumiyligi tushunchasi. Majhul nisbat. Uning faqat o'timli fe'llardan yasalishi. Shaxssiz nisbat. O'timsiz fe'llardan o'timli fe'llarning yasalishi va ularning ma'nosi. Fe'l nisbatlari. Orttirma nisbat. Orttirma fe'llarning majhullik nisbati.

#### **13-mavzu. Mayl**

Istak va shart mayllarining sodda shakllari. Taxmin maylining sodda va murakkab shakllari

#### **14-mavzu. Tus**

Tus kategoriyasi. Fe'l tuslari. Davomli tus. Davomli-progressiv tus. Takroriy tus.

## **3-MODUL. SINTAKSIS**

### **15-mavzu. To'ldiruvchi**

Vositasiz to'ldiruvchi. Vositali to'ldiruvchi. To'ldiruvchining gapdagisi vazifalari. Tugal zamonlarda vositali va vositasiz to'ldiruvchining o'rni. Kesimning to'ldiruvchi bilan moslashuvni yoki moslashmaslik masalalari.

## **16-mavzu. Hol**

Uning turlari (o'rin, sabab, hol, ravish, payt, miqdor va boshqalar) O'rinni payt holi. Sabab va maqsad holi. Ravish holi. Miqdor holi. Holat holi. Holning gapdagi o'rni va vazifalari. Ma'no urg'usiga qarab hol o'rning almashishi.

## **17-mavzu. Aniqlovchi**

Uning ifodalanishi va moslashuvi. Aniqlovchilarning o'zbek tiliga tarjimasi xususiyatlari. Atributiv va predikativ aniqlovchi. Ularning aniqlanmish bilan moslashuvi. Valentlik

### **1.3. 4-BOSQICH: B2 DARAJA (YUQORI O'RTA DARAJA)**

#### **18-mavzu. Sodda gap sintaksisi**

Gap. Gap bo'laklari. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklar. Sodda yig'iq va yoyiq gaplar. So'roq gaplar. Gapning bosh bo'laklari: ega va kesim. Gapning uyushiq bo'laklari. Ot-kesimli gap. Fe'l kesimli gap. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari. Aniqlovchi. To'ldiruvchi. Hol. Gapning mazmuniga ko'ra turlari: darak gap, so'roq, undov gaplar.

#### **19-mavzu. So'z yasalishi**

Ot. Hindiycha ko'plik soni. Fe'l. O'timsiz fe'llardan o'timli fe'llarning yasalishi va ularning ma'nosini. Fe'l nisbatlari. Orttirma nisbat. Yasalishi, ma'nosini. Orttirma fe'llarning majhullik nisbati. Yasalishi. Ma'nosini. Sodda otlaming yasalishi. Qo'shma otlarning yasalishi. Murakkab sifatlarning yasalishi. Sodda va murakkab sonlarning yasalishi. Sodda va murakkab ravishlarning yasalishi. Qo'shma olmoshlarning yasalishi. Murakkab fe'llarning yasalishi.

### **1.4. 5-BOSQICH: C1 DARAJA (YUQORI DARAJA)**

#### **20-mavzu. Sodda gap sintaksisi**

Sodda gaplar va ularning turlari. Shaxsi umumlashgan gaplar. Shaxsi aniq gap. Shaxsi noma'lum gap. Shaxsiz gap. Nominativ gaplar. Ega va uning ifodalanishi. Kesim turlari:sodda, qo'shma va murakkab kesimlar Ot-qo'shma kesimlarning ifodalanishi. Murakkab kesimlarning ifodalanishi. Ikkinchi darajali bo'laklar. Aniqlovchi.Hol.

#### **21-mavzu. Qo'shma gap sintaksisi**

Ergash gapli qo'shma gap. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap. Payt ergash gapli qo'shma gap. O'rinni ergash gapli qo'shma gaplar. Sabab ergash gapli qo'shma gap. Maqsad ergash gapli qo'shma gap. Ravish va miqdor-daraja. O'xshatish ergash gapli qo'shma gap. Natija ergash gapli qo'shma gap. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap. Sabab ergash gapli qo'shma gap. Ega ergash gapli qo'shma gap. Kesim ergash gapli qo'shma gap. Hol ergash gapli qo'shma gap. Sharq ergash gapli qo'shma gap. gapli qo'shma gap.

## **III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Oila va uy jihozlari
  2. Shahar
  3. Vatanimiz poytaxti
  4. Hindistonning poytaxti
  5. Xarid do'konda, bozorda
  6. Transport
  7. Shahar bo'ylab sayr
  8. Poezdda sayohat
  9. Samolyotda sayohat
  10. Taniqli kishilar hayoti
  11. Mening ish kunim
  12. Hindiston tabiiy sharoiti. Iqlimi
  13. Hindiston maorif tizimi
  14. Bizning universitet
  15. Mening shahrim (qishlog'im)
  16. Yil fasllari. Kalendar. Ob-havo
  17. Hindistonning konstitutsiyasi
  18. Hindistonning adabiyoti va san'ati
  19. Hindistonning milliy bayramlari
  20. O'zbekistonning milliy bayramlari
  21. O'zbekistonning ichki va tashqi siyosati
  22. Sport. Sport musobaqlari
  23. O'zbekiston konstitutsiyasi
  24. Matbuot anjumani
  25. O'zbekiston qishloq ho'jaligi
  26. Shifokor huzurida
  27. Koinotning zabit etilishi
  28. O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi aloqalar tarixi
  29. Hindistonda milliy ozodlik harakati
  30. Sipohiylar qo'zg'oloni
  31. Hindistonning siyosiy partiyalari
  32. Hindiston saylov tizimi
  33. Hindiston qishloq xo'jaligi va iqtisodi
  34. Hindiston tashqi siyosati va xalqaro munosabatlari
  35. O'zbekiston va Hindiston iqtisodiy aloqalari
  36. O'zbekistonning boshqa mamlakatlar bilan madaniy va iqtisodiy aloqalari
  37. Hindistonning rasm-rusm va marosimlari
  38. Hamkorlik shartnomalari, muzokaralar.
- Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan

o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### **IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar**

Xorijiy shiq tili fanidan mustaqil ishlar maqsadi – talabalarning kasbiy kommunikativ faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish, ularning ijodiy faoliyatini o'stirish va xorijiy til va adabiyoti ustida mustaqil ishlay olish malaka va ko'nikmalarini hosil qilish va rivojlantirishdan iborat.

- Talabalarning til tayyorgarlik sifatini oshirib borish, til va mutaxassislik bo'yicha adabiyotlar ustida ishlay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.

- O'z kasbiy bilim va malakalarini keyinchalik mustaqil to'ldirib va yangilab borish ehtiyojlarini yaratish va saqlab qolish, xorijiy til va adabiyoti bo'yicha yaratilgan malaka va ko'nikmalarni o'stirib, rivojlantirib borish;

- Talaba bajarishi kerak bo'lgan ishlarni to'g'ri tashkil qilish, kelib chiqadigan qiyinchiliklarni oldindan bila olish, his etish va ularni bartaraf qilish yo'llarini topa olish.

- Ibrat farzandlari platformasidan mustaqil ta'lif doirasida samarali foydalanish.

- Fanga doir videomahsulotlardan foydalangan holda mustaqil ta'lifni olib borish.

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Unlilarini o'zbek tilidagi unlilar bilan solishtirish
2. Undoshlarning birikmasini yozish
3. O'zbek tilidagi sifatlarning darajalarini hindiydagisi sifatlarga qiyoslash
4. Matndan otlarning jins kategoriyasini topib yozish
5. Tub va yasama, sodda va qo'shma ravishlarni tahlil qilish
6. Infinitiv va o'zbek tilidagi harakat nomini solishtirish
7. Ergativ tuzilmasidagi gaplarni tahlil qilish
8. Turli mayldagi gaplarni semantik jihatdan taqqoslash
9. Ergash gaplarni ega va kesim sostaviga ajratib, tahlil qilish.
10. Tus shakllarini o'zbek tilidagi zamon shakllariga solishtirish
11. Tarjima (Badiiy, siyosiy, tarixiy matnlarni o'qish, yozma yoki og'zaki tarjima qilish: bunda yangi so'zlar lug'ati ham taqdim etiladi)
12. Hindiy tilida fe'llarning majhullik nisbati
13. Hindiy va o'zbek tillarida fe'l mayllari
14. Hindiy tilida sifatdoshlar
15. Hindiy tilida shart mayli
16. Hindiy tilida gumon mayli

17. Hindistonning poytaxti va shtatları
18. O'zbekiston va Hindistonning milliy bayramları
19. Hindiston xalqlarining rasm-rusm va marosimlari
20. Bizning universitet. Bizning fakultet
21. O'zbekiston va Hindiston o'rtaqidagi aloqalar tarixi
22. O'zbekistonning boshqa mamlakatlar bilan madaniy va iqtisodiy aloqalari
23. Hindistonning global iqtisodi va qishloq xo'jaligi
24. Zamonaviy texnologiyalarning kundalik hayotdagi ahamiyati
25. Hindistonning oliy ta'lif tizimi
26. O'zbekistonning ichki va tashqi sivosati
27. Hindistonning yirik ishlab chiqarish kompaniyalari
28. Universitetimizning oliygohlar bilan hamkorligi
29. Taniqli hind arboblari hayoti
30. Hindiston maorif tizimi
31. Koinotning zabt etilishi
32. Matbuot anjumani
33. Mashhur hind sanoatchilari
34. O'zbek-hind qo'shma korxonalarli
35. O'zaro hamkorlik shartnomalari
36. Hindistonning tinchliksevar siyosati
37. Jahon iqtisodi
38. Hindistonning xalqaro iqtisodiy aloqalari
39. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar
40. Kelishuvlar, bitimlar, rasmiy uchrashuvlar.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

#### **3. V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fannio'zlashtirish natijasida talaba:

-o'rganilayotgan tilning morfologik tuzilishi va tovush tizimi; o'rganilayotgan tildan o'qitish olib borilayotgan tilga tarjima qilish amaliyoti spesifikasi va stilistik xususiyatlari, me'yoriy grammatika asoslari; o'rganilayotgan tilning rivoji va til doirasidagi ekstralengvistik shakllanishining asosiy faktorlari hamda tarixiy manbalari, uning dialektik xilma-xilligi *to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi*;

-o'rganilayotgan sharq tilining yozma, adabiy va og'zaki shakllari; tilning ilmiy tavsifi, yozuv, grafik xususiyatlari orfografiyasi, punktuatsiyasi, leksik-grammatik xususiyatlari; so'z yosalishi va uning tuzilishi, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish qonuniyatları; sodda va qo'shma gaplar, so'z birikmalari; leksika va yozma nutq; dialektik leksikaning asosiy xususiyatlarini *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

- asosiy o'rganilayotgan tildagi adabiy matnlarni o'qitish olib borilayotgan tilga tarjima qila olish; o'rganilayotgan tilda chet ellik

mutaxassislar bilan muayyan sohada va umumiylar masalalarda to'laqonli jonli muloqot olib borish; har turli va murakkab matnlarni o'qitish olib borilayotgan tildan asosiy o'rganilayotgan tilning hozirgi adabiy shakliga yozma tarjima qila olish; asosiy o'rganilayotgan chet tilida muloqot qilish, nutq so'zlash; asosiy o'rganilayotgan chet tilidan o'qitish olib borilayotgan tilga suhabat, nutq va ma'ruzalarini og'zaki izchil va sinxron tarjima qila olish; o'rganilayotgan chet tili va o'qitish olib borilayotgan tildagi ma'lumotlarni qo'llab annotatsiya, referat, ma'lumotlar to'plash, tuzish va tahlil qilish *malakasiga ega bo'lishi kerak.*

#### **4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- interfaol keys-stadilar;
- amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishslash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyiham;
- jamoa bo'lib ishslash va himoya qilish uchun loyiham;

#### **5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarini to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriglarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

#### **6. Asosiy adabiyotlar**

1. Aulova R.A., Rahmatov B., Sodiqova M.Q. "Hindiy tili darsligi" 1-qism, TDSHI., 2018
2. Aulova R.A., Shomatov O.N., Ralimatov B.R., Sodiqova M.Q. "Hindiy tili darsligi" 2-qism. TDSHI., 2014
3. Sodiqova M.Q., "Hindiy tili darsligi" 4-qism, TDSHU., 2023
4. Minu Kathuriya. Saral Hindi bhasha kaa vyakaran tathaa rachnaa. (Hindiy tili darsligi) .Hindiston. Dehli, 2010.
5. Bharat Singh, Keisuke Kato. Aao hindi sikhon. (Hindiy tilini o'rganamiz). Hindiston. Dehli, 2010.
6. Abdurahmonova M. "Urdu va hindiy tillari qo'shma gap sintaksisi" O'quv qo'llanma TDSHI., 2002
7. Дымшиц З.М. Учебник языка хинди. «Наука» Часть III. М.- 1999

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda: o'quv qo'llanma / Sh. Mirziyoyev. – 2021. 323(575.1)
- 2.Shomatov O.N. Hindiy tili me'yoriy grammatikasi (O'quv qo'llanma) - TDSHI., 2010

3.Begizova X.B. हिन्दी पाठ्य-पुस्तक (O'quv qo'llanma ) - TDSHI., 2007  
4.डा पापुलर ब्रजकिशोर प्रसाद सिंह.हिन्दी व्याकरण. नई दिल्ली. 2016

#### **Axborot manbalari**

1. [www.hind.com](http://www.hind.com)
2. [www.hindibhasha.com](http://www.hindibhasha.com)
3. [www.ibratfarzandlari.uz](http://www.ibratfarzandlari.uz)

7. Fan dasturi "Janubiy va Janubiy Sharqiy Osiyo tillari" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2024 yil "28" 06 dagi 20 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2024 yil "01" 02 dagi 11 - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

#### **8. Fan/modul uchun mas'ullar:**

**Ph.D., dots. N.B.Xodjayeva** – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, "Janubiy va Janubi Sharqiy Osiyo tillari" kafedrasi mudiri  
**A.A.Yunusova** – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Janubiy va Janubi Sharqiy Osiyo tillari" kafedrasi katta o'qituvchisi

[ada.yunus60@mail.com](mailto:ada.yunus60@mail.com)

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti , Janubiy va Janubi Sharqiy Osiyo tillar kafedrasi

#### **9. Taqrizchilar:**

**f.f.n. S.S.Nurmatov** – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Janubiy va Janubiy Sharqiy Osiyo tillari" kafedrasi dotsenti.  
**F.f.n. E.Z.Ochilov** – O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy hodimi.